

TURLI TIZIMLI TILLARDA INSON YOSH DAVRLARINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANISHI.

Abdurazzakov Yusufjon Usmailovich

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Email: yusuffer@mail.ru

Annotatsiya: Insoniyatga yaratgan tomonidan in‘om etilgan til unsuri ikki muhim vazifani bajaradi: birinchidan, olamni tushunishimizga yordam beradi, ikkinchidan ongimizda olamning lisoniy manzarasini yaratadi. Biz tildan bilimlarni saqlash va tartibga solish uchun foydalanamiz, bu esa bizga ma‘lumotlarni tushunish va qayta ishlashga yordam beradi. Olam haqidagi tasavvurlar inson tafakkurida konsept shaklida jamlanib, tilning kognitiv funksiyasi tufayli nutq aktiga ko‘chadi.

Kalit so‘zlar: *fraza, leksema, morfema, sintaktik boglanish, lisoniy birlik*

Tilshunoslikdagi antropotsentrik yo‘nalishdagi tadqiqotlar insonni: uning tabiati, tashqi ko‘rinishi, ichki dunyosi, mentaliteti va boshqalarni eng mukammal tarzda o‘rganishga qaratilgan. Ilmiy tahlil natijalari esa, insonni anglashning birinchi omili tabiiy tillarni chuqur o‘rganish orqali bo‘lishini ko‘rsatadi. Olamning lisoniy tasviri ham aynan tilda shakllanadi. Bunda, aynan, frazeologik birliklarning (FB) ham alohida o‘rni bor.

Maqol, matal va ibora kabi frazeologik birliklar ko‘pincha jamiyatning madaniy xususiyatlarini, ijtimoiy tajribalarini aks ettiradi. Ular nafaqat bir hodisa yoki vaziyatlarni tasvirlaydi, balki ma‘lum qadriyatlarni, xulq-atvor me‘yorlarini yoki atrofdagi dunyo haqidagi hukmlarni ham yetkazadi va sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan sub’yektiv munosabatni ifodalaydi.

Frazeologik birliklar, xalqning madaniy, tarixiy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettirib, inson hayotining ko‘zgusi sifatida mavjudlikning barcha jabhalarini: tug‘ilishdan to o‘limga qadar, xarakter xususiyatlari, aqliy faoliyati, tashqi ko‘rinishi, kasbiy fazilatlari va boshqalarni qamrab oladi. Turli tizimli tillarda, xususan o‘zbek,

rus va nemis tillarida shaxsning yosh davrlariga doir xususiyatlarini aks ettiruvchi frazeologik birliklarni o‘rganish chog‘ishtirma tilshunoslikda alohida qiziqish uyg‘otadi.

Inson yoshi hayotning umumbashariy jihatlaridan biri bo‘lib, uni har bir dunyo madaniyati, maqol va frazeologik birliklarda, o‘ziga xos tasvirlanadi. Bu iboralar ko‘pincha ulg‘ayish, donolik va hayotiy tajribalar bilan bog‘liq chuqur madaniy va ijtimoiy ma‘nolarni bildiradi. Ularda yosh yashirib bo‘lmaydigan va e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan hodisa sifatida aks ettirilgan.

Yoshlik yoshga qaramas, qarilik — sochga o‘zbek maqoli bilan bog‘liq bo‘lib, bu ibora ikki xil vaziyatni ifodalaydi. *Yoshlik yoshga qaramas* – bu qism yoshlikni faqat raqamlarga bog‘liq bo‘lmagan holat sifatida ko‘rsatadi. Yani, insonning ruhi yoki kayfiyati haqiqiy yoshini aks ettirmasligi mumkin. Masalan, kimdir yoshi katta bo‘lishiga qaramay, o‘zini yosh his qilishi va faol harakatlar qilishi mumkin. Bu ibora shuningdek, yoshlik davrida insonning o‘z iqtidori va imkoniyatlarini to‘liq ishga solishi muhimligini ham urg‘ulaydi. *Qarilik – sochga* – yoshning tashqi belgilari, masalan oqargan sochlar yoki yuzdagi ajinlar kabi ko‘rinishlarga ishora qiladi. Bu ibora inson ko‘rinishdagi o‘zgarishlar hamma vaqt ham shaxsning ruhiy holati yoki jismoniy qobiliyatlariga mos kelmasligini anglatadi. Ya’ni, kishining tashqi ko‘rinishi har doim ham uning yoshini anglatmaydi.

Amerika madaniyatida yoshning muqarrar va sezilarli narsa ekanligi, sevgi kabi, uni yashirib bo‘lmaydi degan tushuncha mavjud. *Age is like love, it cannot be hid* (Yosh ham muhabbatga o‘xshaydi, uni yashirib bo‘lmaydi) degan hikmatda inson hayotining ba’zi jihatlarini shu qadar muhimki, ularni yashirib, e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bu ibora insonning haqiqiy his-tuyg‘ularini yashirishning iloji yo‘qligi kabi, haqiqiy yoshini yashirishning ham iloji yo‘qligini ta’kidlaydi.

Age will not be defied (Yoshni e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi) maqolida yoshning o‘ziga xos talablari va cheklovlari borligi, ularni inkor etib bo‘lmashligi ta’kidlanadi. Yosh bizning hayotimizga, tanlovlarimizga, sog‘lig‘imizga va dunyoni idrok etishimizga ta’sir qiladi va bu hodisa qaror qabul qilish yoki taxminlarni

belgilashda hisobga olinishi kerak. Nemis madaniyatida yoshga oid ko‘plab maqol va iboralar mavjud bo‘lib, ular yoshni hurmat qilish va uning muqarrarligini tan olish haqidagi amerikaliklar dunyoqarashiga:

Das Alter kommt auf seine Weise (Yosh o‘z-o‘zidan keladi) maqoli keksayish tabiiy va muqarrar jarayon ekanligi, uni to‘xtatib yoki e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmasligi ta’kidlanadi. Bu bizga har bir inson ertami-kechmi yoshga bog‘liq o‘zgarishlarni boshdan kechirishini eslatadi.

Man ist so alt, wie man sich fñhlt (Inson o‘zini his qilganchalik qari) – bu maqolda aytilishicha, yoshni idrok etish nafaqat yashagan yillar soniga emas, balki shaxsiy his-tuyg‘ular va ichki holatga bog‘liq. Bu faol va sog‘lom turmush tarzining muhimligini ta’kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan uchta tildagi maqollarning barchasida yosh shunchaki raqam emas, balki jismoniy holat, psixologik farovonlik va ijtimoiy umidlarni qamrab oluvchi murakkab hodisa ekanligi aks ettirilgan. Ular yosh davrlarini hayot yo‘lining ajralmas qismi sifatida qabul qilish muhimligini ta’kidlaydi, har bir bosqichga faol va mazmunli yondashishni targ‘ib qiladi.

Yosh davrlarining dastlabki bosqichi bo‘lgan “go‘daklik”ni ifodalovchi frazeologik birliklar har uch tilda uchraydi. Ularda yangi tug‘ilgan chaqaloqqa xos beg‘uborlik, poklik, tajribasizlik kabi sifatlar mentalitetga xos vositalar bilan ifodalangan.

Adabiyotlar:

1. Большой русско-французский словарь / Щерба Л.В., Матусевич М.И., Никитина С.А. и др. М.: Рус. яз., 2000.
2. Гак В.Г., Ганшина К.А. Новый французско-русский словарь. М: Рус. яз., 1995.
3. Даль В.И. Пословицы русского народа. М., 1957.
4. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. М.: Рус. яз., 1978-1980. Т. I-IV.
5. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка М.: Азъ, 1996.